



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAMANGAN VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil  
yanvar-iyun*



## NAMANGAN VILOYATINING DOIMIY AHOLISI.

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyatida 2024- yil 1-iyul holatiga doimiy aholi soni **3094,9** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **28,8** ming kishiga yoki **0,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **2008,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **64,9 %**), qishloq aholisi soni **1086,4** ming kishi (**35,1 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**3094,9** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+29,9** ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi.

### Shahar



**64,9%**

### Qishloq



**35,1%**

Namangan viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar.

2024- yil yanvar-iyun, ming kishi



**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi.**

2024- yil 1-iyul holatiga



**Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi.**

1-iyul holatiga, ming kishi

	2023- yil	2024- yil	O‘sish sur‘ati, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>3028,2</b>	<b>3094,9</b>	<b>102,2</b>
<i>shahar:</i>			
Namangan sh.	686,8	704,2	102,5
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	135,3	138,2	102,1
Kosonsoy	225,0	230,3	102,4
Namangan	190,1	194,6	102,4
Norin	173,9	177,2	101,9
Pop	233,3	237,5	101,8
To‘raqo‘rg‘on	242,3	247,7	102,2
Uychi	229,4	234,6	102,3
Uchqo‘rg‘on	183,3	186,8	101,9
Chortoq	212,1	216,5	102,1
Chust	282,2	288,2	102,1
Yangiqo‘rg‘on	234,5	239,1	102,0


## Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi.

Namangan viloyatida 2024- yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometrغا o'rtacha **416,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **9,2** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **406,8** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Namangan shahrida **4694,7** kishi, Namangan tumanida **973,0** kishi, To'raqo'rg'on tumanida **917,4** kishi, Norin tumanida **843,8** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Pop tumanida **81,6** kishi, Chust tumanida **306,6** kishini tashkil etgan.

## Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi.

*1 yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*



Namangan viloyati bo'yicha qayd etilgan tug'ilishlar.  
2024 yil yanvar-iyun



■ Tug'ilganlar, ming kishi ● O'sish sur'ati, % da


Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-iyun, kishi

Namangan shahar	9283	26,7 ‰
Chust	3287	23,0 ‰
To'raqo'rg'on	3050	24,9 ‰
Uychi	2940	25,3 ‰
Kosonsoy	2858	25,1 ‰
Yangiqo'rg'on	2626	22,2 ‰
Pop	2560	21,8 ‰
Namangan	2280	23,7 ‰
Chortoq	2225	20,7 ‰
Uchqo'g'on	2103	22,7 ‰
Norin	1902	21,7 ‰
Mingbuloq	1530	22,4 ‰

2024- yil yanvar-iyun oylarida **36,6** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,9** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **-1,5** promillega kamayganligini kuzatildi (2023- yilda **25,4** promilleni tashkil etgan).

Namangan viloyati bo'yicha vafot etganlar.  
2024 yil yanvar-iyun



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti.


2024- yil yanvar-iyun, kishi

Namangan shahar	1649	4,7 ‰
Pop	573	4,9 ‰
Chust	566	4,0 ‰
Uychi	562	4,8 ‰
Uchqo'rg'on	517	5,6 ‰
Yangiqo'rg'on	509	4,3 ‰
To'raqo'rg'on	473	3,9 ‰
Chortoq	437	4,1 ‰
Kosonsoy	428	4,1 ‰
Norin	422	3,8 ‰
Namangan	366	3,8 ‰
Mingbuloq	252	3,7 ‰

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 6,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega ko'payganligini kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 4,2 promille bo'lgan).


### O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi.

2024- yil yanvar-iyun, kishi




2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **56,0 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,7 %** i – o‘simtalardan, **6,9 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,4 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,4 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,2 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **16,4 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

Namangan viloyati bo'yicha qayd etilgan nikohlar.  
2024 yil yanvar-iyun




Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida **6,7** mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan o'zgarmagan (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **4,4** promille bo'lgan).




**Namangan viloyati bo'yicha nikohdan ajralishlar.  
2024 yil yanvar-iyun**



**Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti.**

2024- yil yanvar-iyun, birlik



2024- yil yanvar-iyun oylarida **2,0** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promille kamayganligini kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida **1,6** promille bo'lgan)

**Namangan viloyati aholi migratsiyasi.**

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*


2024- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **1 649** kishini, Ko'chib ketganlar soni esa **2 710** kishini tashkil etdi.

**Namangan viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni.**

*2024- yil yanvar-iyun, kishi*


	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar
	jami	jami
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1649</b>	<b>2710</b>
shahar:		
Namangan shahri	628	583
tumanlar:		
Mingbuloq	40	91
Kosonsoy	90	140
Namangan	112	134
Norin	175	262
Pop	141	300
To'raqo'rg'on	100	157
Uychi	93	174
Uchqo'rg'on	51	262
Chortoq	45	155
Chust	110	284
Yangiqo'rg'on	64	168

**JAMI KO‘CHIB KELGANLAR.**  
2024 yil yanvar-iyun



■ Ko'chib kelganlar, ming kishi    ● O'sish sur'ati, % da


**Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti.**  
2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida 1,6 mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida 0,8 promille bo‘lgan).

### JAMI KO‘CHIB KETGANLAR.


2024 yil yanvar-iyun



■ Ko'chib ketganlar, ming kishi    ● O'sish sur'ati, % da

### Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti.

2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida 2,7 mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **1,8** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilga nisbatan **0,3** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-iyun oylarida **1,5** promille bo‘lgan).

### Demografik ko'rsatkichlarga izohlar.

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayan hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘ssishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya mehnat va gender statistikasi bo‘limi**

*Tel: 69 227-84-91*